

ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA PEDAGOGLIK KASBI VA UNGA QO‘YILAYOTGAN TALABLAR

*University of management and
Future technologies universitetining
Pedagogika va psixologiya talabasi
Tulqunova Barnooy*

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy pedagogika tizimida pedagoglik kasbining mohiyati, uning jamiyatdagi o‘rni hamda unga qo‘yilayotgan yangi talablar tahlil etilgan. Shuningdek, pedagog shaxsining kasbiy kompetensiyasi, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari va ijodiy faoliyatning ahamiyati yoritilgan. Maqolada o‘qituvchining zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda pedagogik faoliyatni takomillashtirish yo‘llari haqida ilmiy asoslangan xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogika, pedagoglik kasbi, kasbiy kompetensiya, zamonaviy ta’lim, innovatsion metod, axborot texnologiyalari, refleksiya.

Abstract

This article analyzes the essence of the teaching profession in modern pedagogy, its social importance, and the new requirements imposed on teachers. It emphasizes the significance of professional competence, digital literacy, and creativity in the educational process. The paper presents scientifically grounded conclusions about the modern teacher’s role and the ways to improve pedagogical practice in the context of current educational reforms.

Keywords: pedagogy, teaching profession, professional competence, modern education, innovation, information technologies, reflection.

Bugungi globallashuv va axborot asrida ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining strategik omiliga aylanib bormoqda. Pedagoglik kasbi – bu inson shaxsini har tomonlama shakllantirish, unga mustaqil fikrlash, tahlil qilish, o‘zini va boshqalarni anglash ko‘nikmalarini singdirish faoliyatidir. Bugungi pedagog zamon bilan hamnafas bo‘lishi, yangi axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishi, ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishi zarur. Chunki XXI asr – bu raqamli texnologiyalar, ijodkorlik va tezkor o‘zgarishlar asri. Shu sababli pedagog doimo o‘z ustida ishlaydigan, o‘z bilimini yangilab boradigan, izlanuvchan va yangilikka ochiq shaxs bo‘lishi kerak. Shu sababli pedagogik faoliyatga yangicha yondashuv, zamon talablariga mos innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalarni qo‘llash zaruriyati ortmoqda. Pedagoglik kasbi shunchaki bilim berish emas, balki o‘quvchi shaxsini har

tomonlarni rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ijtimoiy faollikka yo'naltirish jarayonini boshqarishni talab etadi. Zamonaviy pedagogika o'qituvchini doimiy o'zgarishlarga tayyor, yangi g'oyalar va yondashuvlarni sinovdan o'tkazuvchi ijodkor shaxs sifatida ko'radi.

Pedagoglik kasbining zamonaviy talqini. Pedagoglik kasbi tarixan eng sharafliligi va mas'uliyatli sohalaridan biri hisoblanadi. Biroq zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan yangicha dunyoqarash, kasbiy moslashuvchanlik va yangilikka ochiqlikni talab etadi. O'qituvchi o'z fanini chuqur bilish bilan bir qatorda, uni o'quvchilarga samarali yetkazib bera oladigan metodik mahoratga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga, u tarbiyachi, psixolog, maslahatchi va yetakchi sifatida ham faoliyat yuritadi.

Pedagog shaxsiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar. Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagog quyidagi asosiy sifat va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur:

- Kasbiy kompetensiya: fan sohasini chuqur bilish, metodik yondashuvni egallash va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish.
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilish: raqamli ta'lim vositalari, onlayn platformalar va multimediyadan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish.
- Ijodkorlik va innovatsion fikrlash: yangi metodlar ishlab chiqish, o'quvchilarda qiziqish uyg'otish va dars jarayonini interfaol tashkil etish.
- Tarbiyaviy yondashuv: o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirish, ularni vatanparvarlik, halollik va mas'uliyat ruhida tarbiyalash.
- Refleksiya: o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan to'g'ri xulosa chiqarish va o'z ustida doimiy ishlash qobiliyati.

Pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvlar. Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar – "Aqliy hujum", "Debat", "Klasster", "Bumerang" kabi usullar keng qo'llanilmoqda. Bular o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muloqot qilish va muammoni hal etish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Pedagog innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish orqali darslarni samarali tashkil etadi, bu esa o'quvchilarning faolligini oshiradi.

Pedagogning ijtimoiy missiyasi. Pedagog jamiyatda ma'naviy va madaniy qadriyatlarni saqlovchi shaxsdir. Uning mehnati orqali yosh avlodning bilim darajasi, dunyoqarashi va tafakkuri shakllanadi. Shu bois o'qituvchining obro'si, kasbiy madaniyati va axloqiy fazilatlari millat taraqqiyotida beqiyos o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogika sharoitida pedagoglik kasbi yanada murakkablashib, unga qo'yilayotgan talablar ham ortib bormoqda. Pedagog o'z bilimini muntazam yangilab borishi, raqamli ta'lim muhitida faol bo'lishi va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga individual yondashuv asosida ta'sir ko'rsatishi zarur. Zamonaviy pedagoglik kasbi – bu doimiy izlanish, yangilikka intilish va o'zini takomillashtirish jarayonidir. Pedagog nafaqat o'quvchilarga bilim beradi, balki ularni

hayotga, mehnatga, jamiyatga tayyorlaydi. U o'quvchilar qalbiga nur, bilim va ishonch olib kiruvchi insondir. Demak, bugungi pedagog — bu: zamonaviy texnologiyalarni biluvchi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim beruvchi, ijodkor, ma'naviy barkamol va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi mutaxassisdir. Faqat zamon talablariga mos, ijodkor va innovatsion fikrlaydigan pedagoggina ta'lim sifatini yuksaltira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xaydarov. S.A. (2025). Oilaviy tarbiyada va maktab tarbiyasida yuzaga keladigan risklar. 16-son. 9-11.
2. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
3. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига рухий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
4. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
5. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
6. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.
7. Khaydarov S.A. (2025). On analysis of family factors and social creativity issues in the study of the psychological portrait of educational institutions' leaders. Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology ISSN: 1001-4055 Vol. 46 No. 2.
8. Хайдаров С. (2025). Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati. 3 (9). 261-265.